



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-15-124-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on rayon soveti ijroiya komitetining 1986-yil 30-maydagi 11/196-son qaroriga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunining 56- va 59-moddalari, “Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi, Kattaqo‘rg‘on tumani, Javlon MFY, Javlon qishlog‘ida yashovchi Ruziyev Alikul Xamrokulovichning murojaatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi VII chaqiriq o‘n beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Ruziyev Alikul Xamrokulovichning xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi raisiga Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on rayon soveti ijroiya komitetining 1986-yil 30-maydagi 11/196-son qaroridagi 4-tartibiga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risidagibergan arizasi va unga ilova etilgan hujjatlar o‘rganib chiqilgan deb hisoblansin hamda undagi talab qanoatlantirilsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining mazkur qarori bilan Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on rayon soveti ijroiya komitetining 1986-yil 30-maydagi 11/196-son qarori ilovasidagi 4-tartib raqamiga “Ruziyev Alikul” ismi sharifiga o‘zgartish kiritilib, o‘rniga “Ruziyev Alikul Xamrokulovich” deb o‘qilsin va bu haqida Kattaqo‘rg‘on shahar davlat arxivi (B.Sirojiddinov)ga ma’lum qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish doimiy komissiya (A.Xudoyberdiyev) hamda tuman hokimi o‘rinbosari M.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV JAMSHID
TULKINOVICH